

Date: 19<sup>th</sup> April-2025

## QADIMGI SHARQ ADABIYOTING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Usmonova Elmira Xasanboy qizi**

Qoqon universiteti Andijon filiali ijtimoiy

gumanitar va pedagogika fakulteti,

Filologiya tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi.

**Annotatsiya:** Ushbu ko'rib chiqilgan maqolada shularga a'lohida e'tibor qaratilgan yozildiki, qadimgi Sharq adabiyotining asosiy xususiyatlari, mazmun-mohiyati va uning insoniyat madaniy merosidagi o'rni yoritilgan. Adabiyotning diniy-falsafiy yo'nalishi, afsonaviy va mifologik obrazlar orqali ifodalangan g'oyaviy mazmuni, axloqiy-tarbiyaviy yo'nalishi hamda hikmatli shakllarda berilgan asarlar tahlil qilinadi. Shuningdek, qadimgi Sharq adabiyotining she'riy shakldagi ifodasi, tabiat bilan uyg'unlikda yaratilgan obrazlari va tarixiy xotiralarni aks ettiruvchi jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Ishda "Gilgamish dostoni", "Avesta", "Veda"lar, "Kalila va Dimna", "Shahnoma" kabi muhim manbalar misol sifatida tahlil qilingan. Annotatsiyada qadimiy adabiyotning zamonaviy madaniyatga ta'siri haqida ham fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi Sharq, Adabiyot, Mifologiya, Diniy-falsafiy qarashlar, Axloqiy tarbiya, she'riy shakl, og'zaki ijod, hikmatli so'zlar, tarixiy yodnomalar, tabiat tasviri, afsonaviy obrazlar, madaniy meros, ezgulik va yovuzlik.

**Аннотация:** В этой рецензируемой статье особое внимание было уделено тому, чтобы осветить основные черты, содержание и роль древневосточной литературы в культурном наследии человечества. Анализируются религиозно-философская направленность литературы, идейное содержание, выраженное через мифологические и мифологические образы, нравственно-воспитательная направленность, а также произведения, представленные в мудрых формах. Также показаны аспекты древневосточной литературы, выраженные в поэтической форме, образы, созданные в гармонии с природой, отражающие исторические воспоминания. В работе в качестве примеров проанализированы такие важные источники, как "эпос о Гильгамеше", "Авеста", "Веды", "Калила и Димна", "Шахнаме". В аннотации также рассматривается влияние античной литературы на современную культуру.

**Ключевые слова:** Древний Восток, литература, мифология, религиозно-философские взгляды, нравственное воспитание, поэтическая форма, устное творчество, мудрые слова, исторические памятники, природа

**Kirish:** Qadimgi Sharq adabiyoti – insoniyat madaniy merosining eng qadimgi va boy sohalaridan biridir<sup>1</sup>. U Sharqning turli hududlarida (Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, O'rta Osiyo va boshqalar) vujudga kelgan, har birining o'ziga xos adabiy

<sup>1</sup> QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI: (Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 386-388.

Date: 19<sup>th</sup> April-2025

maktabi va urf-odatlar mavjud. Quyida qadimgi Sharq adabiyotining o'ziga xos jihatlari keltirilgan:

Asosiy qism: Sharq adabiyoti — Sharq sivilizatsiyalarida (Mesopotamiya, Misr, Eron, Hindiston, Xitoy, Arab dunyosi, O'rta Osiyo) yaratilgan badiiy, falsafiy, diniy va tarixiy asarlarni o'z ichiga oladi. <sup>2</sup>Bu adabiyot turli davr va tillarda yozilgan, ammo ularni ezigulik, donishmandlik va hayotiy tajriba birlashtirib turadi.

Eng qadimgi namunalar:

"Gilgamish dostoni" (Babil/Mesopotamiya) – inson, do'stlik va abadiylik haqida.

"Avesta" (Eron) – zardushtiylik diniy matni.

"Veda"lar (Hindiston) – hind falsafasi, diniy ibodatlar.

"Tao Te Ching" (Xitoy) – Lao Tsi tomonidan yozilgan falsafiy matn.

"Kalila va Dimna" – axloqiy-tarbiyaviy hikoyatlar to'plami.

"Shahnama" (Firdavsiy) – Eron tarixiy-qahramonlik eposi.

Asosiy mavzular va g'oyalar: ezigulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, axloqiy fazilatlar, halollik, sabr, donishmandlik, tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik, diniy-falsafiy tafakkur, qahramonlik va milliy g'urur, hayot, o'lim va abadiyat haqida mulohazalar.

Sharq adabiyotining asosiy xususiyatlari. Sharq adabiyotining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

✓ Diniy-falsafiy yo'nalish – Asarlar ko'pincha diniy g'oyalar va hayotiy falsafaga asoslangan.

✓ Axloqiy-tarbiyaviy mazmun – Donolik, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik targ'ib qilinadi.

✓ Mifologik obrazlar – Xudolar, afsonaviy qahramonlar va ruhiy mavjudotlar tasvirlanadi.

✓ She'riy shaklning ustuvorligi – Asarlarning ko'pchiligi qofiyalangan, ritmik shaklda yozilgan.

✓ Tirik hayotdan olinma – Odamlar hayoti, turmush tarzidagi voqealar hikmatli shakllarda berilgan<sup>3</sup>.

Sharq adabiyotining buyuk namunalari: Sharq adabiyotining ko'plab durdonalari nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham jahon adabiyoti rivojiga ta'sir ko'rsatgan<sup>4</sup>. Masalan:

✓ "Kalila va Dimna" – Hindiston va arab dunyosida mashhur bo'lgan hikmatli hikoyatlar to'plami.

✓ "Shahnama" – Fors shoiri Abulqosim Firdavsiy tomonidan yozilgan qahramonlik eposi.

<sup>2</sup> Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.

<sup>3</sup> Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(42), 144-149.

<sup>4</sup> Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.

Date: 19<sup>th</sup> April-2025

✓ Alisher Navoiy asarlari – O‘zbek adabiyotining yorqin namunasi bo‘lib, Sharq adabiy an‘analarini yuksak cho‘qqiga olib chiqqan.

Qadimgi Sharq adabiyotining o‘ziga xos jihatlari:

Diniy-falsafiy yo‘nalish; Asarlar ko‘pincha diniy aqidalar, ilohiy qonunlar, hayot falsafasi va axloqiy me‘yorlar asosida yozilgan.

Masalan, "Avesta" (Eron), \*\*\*"Veda"\*\*\*lar (Hindiston), "Tao Te Ching" (Xitoy), "Kalila va Dimna" (Hindiston/Arab dunyosi) kabi asarlar diniy-falsafiy ruhda bo‘lgan

Afsonaviy va mifologik obrazlar: Ko‘plab asarlarda xudolar, devlar, ilohiy qahramonlar, ajdarlar va boshqa mifologik mavjudotlar ishtirok etadi<sup>5</sup>.

Masalan, "**Gilgamish dostoni**" (Bobil/Mesopotamiya) inson va abadiy hayot g‘oyasini mifologik tarzda ochib beradi.

She'riy shaklning ustuvorligi: Ko‘pgina qadimgi matnlar (hatto tarixiy va falsafiy ham) she'r tarzida yozilgan. Bu ularni yod olish va og‘zaki ravishda avloddan avlodga yetkazishni osonlashtirgan. **Rubobiy ritm** va **hikmatli baytlar** keng tarqalgan.

Axloqiy-tarbiyaviy yo‘nalish: Adabiyot insonni ezgulik, halollik, sabr-toqat, ota-onaga hurmat, adolat, mehr-shafqatga chaqirgan. Hikmatli so‘zlar, masallar, maqollar keng qo‘llanilgan.

**Hikoya va masal shaklida bayon:** Ayniqsa hind va arab adabiyotida **hikmatli hikoyalar** (Kalila va Dimna kabi) keng tarqalgan. Hayvonlar tilidan foydalanilgan, ammo insoniy fazilatlar targ‘ib qilingan.

Tabiiy hodisalar va koinot bilan uyg‘unlik: Tabiat, fasllar, oy-quyosh, suv-yer kabi unsurlar orqali hayot falsafasi yoritilgan. Xitoy va Hind adabiyotida tabiatga sig‘inish, yin-yang, karma g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi<sup>6</sup>.

Tarixiy va yodnoma xususiyat: Ko‘plab adabiy matnlar tarixiy voqealarni, shohlar faoliyatini, janglarni tasvirlab bergan (masalan, "Behistun yozuvi", "Mahabharata", "Shahnomah").

**Xulosa:** Maqolamiz yakunida shuni alohida takidlashimiz kerakki sharq adabiyoti – bu nafaqat qadimgi zamonlarning badiiy yodgorligi, balki bugungi kunda ham insoniyatni o‘ylantiruvchi, o‘rgatuvchi va tarbiyalovchi ma‘naviy xazinadir. U o‘zining chuqur falsafasi, go‘zal tili va ibratli mazmuni bilan jahon adabiyotining bebaho qismiga aylangan. Bugungi kunda ham bu adabiy merosni o‘rganish, undan ilhom olish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Sharq adabiyotining o‘ziga xos jihatlardan biri shundaki, u o‘z davridagi ijtimoiy hayotni, urf-odatlarini, e‘tiqodlarni chuqur aks ettira olgan. Bu adabiyot bugungi kunda ham madaniy meros sifatida qadrlanadi va o‘rganiladi. Biz ushbu tadqiqotli maqolamiz davomida qadimgi sharq adabiyotini qisqacha yoritib bera olgan bo‘lsak demak maqdadimizga erishdik.

<sup>5</sup> Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERSHENSTVOVANIYE ZANYATIY IZOBRAZITEL'NYM ISKUSSTVOM I RAZVITIYE SPOSOBNOSTEY UCHASHIXSYA». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013

<sup>66</sup> Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференция*.

**Date: 19<sup>th</sup> April-2025**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.
5. O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 438-442.
10. Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). ТЕМА« SOVERShENSTVOVANIYe ZANYaTIY IZOBRAZITEL'НЫМ ISKUSSTVOM I RAZVITIYe SPOSOBNOSTEY UChAЩIXSYa». *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013
11. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,
12. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,
13. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.
14. Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. *Science and innovation*, 3(Special Issue 34), 178-181.



Date: 19<sup>th</sup> April-2025

15. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. *University Research Base*, 992-995.

